

Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**DESCRIPTION AND CLASSIFICATION OF EUPHEMISMS IN WORLD LINGUISTICS****Zebinso Numonova***PhD, Lecturer**Department of Theoretical Aspects of English Language**Andijan State Institute of Foreign Languages**Andijan, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE****Key words:** euphemism, description, taboo, euphemistic layer, speech unit.**Abstract:** This article discusses the issues of studying euphemisms in world linguistics and their historical development stages. It also addresses the description and classification of euphemisms.**Received:** 16.10.25**Accepted:** 17.10.25**Published:** 18.10.25**DUNYO TILSHUNOSLIGIDA EVFEMIZMLAR TAVSIFI VA TASNIFI****Zebinso No'monova***Ingliz tili nazariy aspektlari kafedrası, PhD o'qituvchi**Andijon davlat chet tillar instituti**Andijon, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA****Kalit so'zlar:** evfemizm, tavsif, tabu, evfemik qatlam, nutq birligi.**Annotatsiya:** Ushbu maqolada dunyo tilshunosligida evfemizmlar tadqiqi masalalari va ularning tarixiy rivojlanish bosqichlari ustida so'z boradi. Shuningdek, evfemizmlarning tavsifi va tasnifi masalalari ilgari surilgan.**ОПИСАНИЕ И КЛАССИФИКАЦИЯ ЭВФЕМИЗМОВ В МИРОВОЙ ЛИНГВИСТИКЕ****Зевинсо Номонова***Кафедра теоретических аспектов английского языка**Кандидат наук, преподаватель**Андижанский государственный институт иностранных языков**Андижан, Узбекистан***О СТАТЬЕ**

Ключевые слова: эвфемизм, описание, табу, эвфемический слой, единица речи.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы исследования эвфемизмов в мировой лингвистике и этапы их исторического развития. Также обсуждаются вопросы описания и классификации эвфемизмов.

Ma'lumki, evfemizmlar aytish nojoiz bo'lgan, tabulashtirilgan so'zlar o'rniga sun'iy yaratilgan so'z va iboralar emas, balki kishilarning kundalik turmushida eng faol qo'llaniladigan, umumiste'moldagi nutq birliklaridir. Evfemizmlar hayotning turli jabhalari haqidagi muomalalarda qo'llanish bilan birga, ayniqsa, shaxsning kundalik zaruriyatlari, oilaviy (intim) munosabatlarni ifodalashda keng qo'llaniladi. Evfemizmlarning tilda qanchalik ko'p bo'lishi til imkoniyatlarining shunchalik kengligini ko'rsatadi. Ular xalqning o'tmishi, tarixi, an'analari, urf-odati, va madaniyatini o'zida yaqqol aks ettiradi. Shu bilan birga xalqning yorqin milliy xususiyatlarini mujassamlashtiradi, chuqur va boy ma'noga ega bo'lib, nutqqa alohida ko'rk va ta'sirchanlik bag'ishlaydi. Evfemizmlar insoniyat tarixida tildan foydalanishda keng tarqalgan hodisalardan hisoblanib, u asrlar davomida muloqotning ijobiylik sifatlarini oshirgan, xususan, fan XXI asrga kelib e'tirof etayotgan ijtimoiy munosabatlarda psixolingvistik ta'sir etishning ko'lam kasb etishiga xizmat qilib kelmoqda.

Evfemizm hodisasiga qiziqishlar antik davrdan boshlangan edi. Rim va Yunon olimlari, jumladan, Tsitseron, Aristotel, Demokrit, Gippiy, Platon, Kvintilianlar miloddan avvalgi V-VI asrlarda evfemizm tushunchasiga e'tibor qarata boshlaganlar.

XVI asrning yarmiga kelib odamlar nutq madaniyatini yaxshilashga harakat qila boshladilar. Ular Xudo yoki insonning avratlari nomlaridan foydalanishni to'xtatishdi va bu harakatlar XVIII asrga qadar davom etdi. Bunday sa'y-harakatlarning yorqin misoli sifatida S.Richerdsonning "Pamella"[1] asarida ba'zi nozik vaziyatlarning evfemik shaklini juda madaniy tarzda qo'llaganini ko'rish mumkin. XIX asrga kelib o'zgacha madaniy hayot tarzi shakllanadi, axloqiy va rasmiy senzura kuchayib, noziklik, nutqiy madaniyat yanada rivoj topa boshlaydi. Nemis olimi G. Paul[2] evfemizm hodisasining lingvistik jihatdan semantik o'zgarishlarining ma'lum sxemalarini taqdim etdi. Ushbu davrda, shuningdek nafaqat inson a'zolari, balki hayvon va hasharot, kasallik va narsa-hodisalar nomini evfemalashtirish ham avj oladi. Chunki birinchi jahon urushi davrida Yevropada odam savdosi, yetimlik, foxishabozlik rivoj topa borgan sari evfemik birliklar va argotizmlar ham ko'payib bordi. Ularning ma'noviy xususiyatlari zamon va makonda, insoniyat xatti-harakati va holati bilan bog'liq holda tomir yoza boshladi.

Evfemizmning mohiyatini izohlashda dunyo olimlaridan A.M.Katsev, A.S.Hornby, J.Vandriyes, L.A.Buxalovskiy va I.V.Arnoldlarning ta'riflari e'tirofga molik. Yunoncha "eu phemi" ("eu" – yaxshi, "phemi" – gapiryapman) so'zlaridan kelib chiqqan evfemizm A.M.Katsev

ta'rificha: "og'zaki va yozma nutqda qo'llaniladigan, ma'nosi neytral, vazifasiga ko'ra emotsional bo'lgan so'z bo'lib, qo'pol yoki beodob so'zlar o'rnida qo'llaniladi"[3]. A.S.Hornbi tahriri ostida nashr etilgan "Oxford Advanced Learner's Dictionary" izohli lug'atining 6-nashrida esa evfemistik til (euphemistic language) deb ham nom olgan [4]. J.Vandriyes: "evfemizm – bu man etilgan lug'atning muloyimroq va madaniyroq formasigina xolos"[5] deb yozsa, L.A.Buxalovskiy: "evfemizmlar yomon fikr uyg'otadigan narsa yoki hodisaning asl nomini almashtirish va ular haqida so'z orqali yovuz kuchlarni chaqirish "xavfi"ni tug'dirmay gapirish ... hammadan oldin "xavfning oldini olish" formulasi"[6] ekanligini qayd etadi. I.V.Arnold ham evfemizmlar har bir dinda mavjud shaklda Allohning nomi evfemalashtirilganligi haqida hajman kam bo'lsa-da, salmoqli fikrlar yozib qoldirgan [7]. "Lingvistik terminlar izohli lug'ati"ga asosan, "evfemizm narsa-hodisaning ancha yumshoq shakldagi ifodasi; qo'pol, beodob so'z, ibora va tabu o'rnida qo'pol bo'lmagan, botmaydigan so'z, iboradan foydalanish, masalan, ikkiqat so'zi o'rnida homilador, og'iroyoq so'zlarini qo'llash" [8] ni anglatadi.

Yuqoridagi fikrlardan anglash mumkinki, mavjud tadqiqotlarning xulosalari asosida evfemizmlar o'z sharxi va ma'nosiga ega. Bu hodisaning mazmun mundarijasida bajaradigan vazifalariga alohida ahamiyat qaratiladi. Bir o'rinda qo'pol va noxush so'zlarni yumshatish (niqoblash) vazifasiga urg'u berilsa, boshqa o'rinda asosiy yumshatish vazifasidan tashqari ijtimoiy motivlarning muhimligi ta'kidlanadi. Shu jihatdan mavjud ta'riflarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Evfemizmlarning qo'pol va noxush so'zlarni yumshatish vazifasi:
 - a) D.Nimov va K.Silver: "Evfemizmlar – noxush haqiqatni berkitish maqsadida qo'llaniluvchi neytral so'zlardir" [9];
 - b) A.Spurs: "Evfemizm – aytilishi noo'rin, noxush bo'lgan so'z yoki ibora o'rniga boshqa o'rinli bo'lgan so'zni qo'llash" [10];
 - c) S.Mametov va Z.Kulumbayeva: "Aytilishi noxush bo'lgan, muomala qoidalariga uyg'un bo'lmagan qo'pol, xunuk so'zlarning o'rniga boshqa so'zlarning qo'llanilishi" [11];
 - d) X.Fauler: "Evfemizm – qo'pol va noxush bo'lgan haqiqat o'rnida qo'llaniluvchi muloyimroq, noaniq iboralardir"[12];
 - e) Ch.Keyni: "Evfemizm – noxush, haqoratli yoki qo'rquv uyg'otuvchi so'zni boshqa yumshoqroq termin bilan almashtirib qo'llash usulidir"[13];
 - f) I.P.Galperin: "Evfemizm – noxush so'z va iborani nisbatan o'rinli bo'lgan so'z yoki ibora bilan almashtirish"[14];
 - g) Dj.Lourens: "Evfemizm fikrni (ma'lum sabablarga ko'ra) yumshatilgan, qog'ozga o'ralgan holda ifoda etishdir. Ko'p hollarda bu yumshatish faqatgina soxta" [15];

2. Evfemizmlarning asosiy yumshatish vazifasidan tashqari ijtimoiy motivlarning muhimligi:

a) E.Partridj: “Evfemizm – tinglovchiga noxush ta’sirni kamaytirish yoki so‘zlovchining yaxshi taassurot qoldirish maqsadida qo‘llaniluvchi iboralardir”[16];

b) A.Katsev: “Evfemizm – axloqiy va diniy motivlardan kelib chiqqan holda qo‘rqinchli, uyatli so‘zlar o‘rnida qo‘llaniluvchi, yumshatish ta’siriga ega bo‘lgan so‘z va iboralardir” [17];

c) L.Krisin: “Evfemizm muloqotda kommunikativ konfliktlardan qochish, tinglovchida kommunikativ diskomfort hissini uyg‘otmaslik maqsadida qo‘llaniladi”;

d) E.Tyurina: “Evfemizmlar ma’lum sabablarga ko‘ra nisbatan o‘rinli deb hisoblanuvchi so‘z va iboralar bo‘lib, ular so‘zlovchi uchun jamiyatda qabul qilingan axloq normalari nuqtayi nazaridan taqiqlangan, noo‘rin, qo‘pol so‘zlar o‘rnida qo‘llaniladi”.

Yuqoridagi qarashlarni e’tirof etgan holda evfemizmlarni yuzaga chiqarish va qo‘llashdan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad muloqotda “xushmuomalalik”ka erishish ekanligini ta’kidlaymiz. Shu asosda bizning ta’rifimizcha evfemizm – negativizmdan pozitivizmga tomon qo‘yilgan birinchi qadam, ya’ni negativ yoki salbiy voqea-hodisani, pozitiv yoki ijobiy voqea-hodisaga aylantirish yo‘lidir. Shu ma’noda tadqiqotda evfemizmlarning o‘ziga xos xususiyatlarini va vazifalarini hisobga olgan holda ularni xushso‘zlar deb atashni ma’qul topdik.

Evfemizmlar tadqiqida amerikalik tilshunos Ravsonning “Evfemizm va boshqa muloqot turlari lug‘ati” (Dictionary of euphemisms & other doubletalk) mavjud bo‘lib, u ingliz tilidagi evfemizmlarga xos muhim jihatlar yoritilganligi bilan qimmatlidir. Lug‘atda nafaqat ingliz tili evfemizmlari jamlangan, balki ularning turlari va o‘ziga xos xususiyatlari tadqiq etilgan. Bundan tashqari, J.S.Neman va C.G.Silver hammuallifligida nashr etilgan “Xushmuomala so‘zlar: evfemizmlar” (The Words worth book of euphemism) lug‘atida ingliz tili evfemizmlariga xos barcha jihatlar yoritilgan, turlarga ajratilgan.

Ma’lumki, tabu va evfemizm bir-biridan ajralmas fenomen sifatida lisoniy muloqot jarayonida keng miqyosda foydalaniladi. A.A.Reformatskiy ta’kidlashicha: “tabu o‘rnida qo‘llanilayotgan evfemik birliklar etnik taraqqiyot bilan bog‘liqdir. Tabuning paydo bo‘lishiga turli bid’at va xurofotlar sabab bo‘lgan, evfemizmlar esa uning nomini yopish uchun xizmat qiladi”. Tabu va evfemiya fenomenlari XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, turli omillar sababli etnografik va etnolingvistik nuqtai nazardan tadqiq qilina boshlandi. Ushbu hodisalar til va tafakkur rivojlanishi bilan birga shakllanib, o‘sib borgan va insonning ijtimoiy ehtiyojlari hamda ifodalash talablari asosida til kabi evolyutsion jarayonlarni bosib o‘tgan. Bugungi kunda tabu va evfemiya alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmoqda va bu hodisalar, bir nechta qatlamdan iborat bo‘lib, ular bir-biri bilan uzviy bog‘langan: til (aloqa va xabar), nutq (munosabat

va muloqot) va supernutq (evfemik va emotsional ifoda). Nutq tilning rivojlanishi, evfemik qatlam esa nutqning keyingi bosqichi sifatida qaraladi. Evfemik nutq tafakkurning yuqori darajasi bo‘lib, voqelikni yumshatib, bezatib, yengillashtirilgan obrazda ifodalashning shaklidir.

V.P.Darbakovaning qayd etishicha: “qadimgi mongollar tushunchasida tog‘lar, kamarlar va g‘orlar bekorga yerdan baland qilib yaratilmagan, ular yerni ushlab turuvchi ustunlar, ya’ni ulug‘ joylar sifatida muqaddaslashtirilgan, shu tufayli ularning o‘rmonlarini kesish, hayvonlarini o‘ldirish yomonlik keltiradi deb tushunilgan, hattoki, tog‘larning nomlari tilga olinmagan (agar u ko‘rinib tursa, shivirlab gapirilgan). Tog‘lar joylashgan o‘rniga qarab: Shimoliy tog‘, Sharqiy tog‘, G‘arbiy tog‘, Janubiy tog‘; biror belgi xususiyatiga qarab: Ko‘ktov, Alatov, Oltintov, Kumushtov, Sirlitov, Balandtov, Qorlitov, Yetimtov kabi nomlar bilan, keyinchalik shaxs nomlari bilan atalgan”. Mashhur bir mudarrisning shogirdlari uning huzurida (kal bo‘lganligi uchun) “Kavsar” surasidagi “kalkavsar” so‘zini doimo “gulkavsar” tarzida talaffuz qilishlari haqida ham rivoyat mavjud. Arman yozuvchisi E.A.Agayan esa arman qishloqlarida ilon so‘zi o‘rnida arqon, kanat so‘zlari ishlatilganligini yozadi.

Bu fikrlarda evfemizmning ma’no aniqligi, qamrovi, tasviriy ifodalar obyekti, unga yaqin hodisalar va tilning o‘ziga bo‘lgan munosabati, shuningdek, uning rivojlanish jarayoni haqida mulohazalar ifodalangan. Biroq, bu tadqiqotlarda nutqshunoslik masalalari, uning evfemikasi nazariy va amaliy jihatdan to‘liq hal etilgan degan fikrni bildirayotganimizni aytish qiyin. Shuningdek, tabu va evfemizmni ibtidoiy din, cheklangan tafakkur, bugungi kunda yetuk bo‘lmagan insonlarning noodatiy dunyoqarashi, xurofot, bid’at va rasm-rusumlarga bog‘liq holda yuzaga kelgan eski qoldiqlar sifatida ko‘rib chiqish, jamiyatning madaniylashgan davrida bularning yo‘qolishi haqidagi qarashlar o‘zini oqlamaydi.

Evfemizm o‘zbek til ilmidagi disfemizmga nisbatan kengroq o‘rganilgan bo‘lib, bugungi kunga qadar qator olimlar tomonidan uning salmoqli qismi nutqiy qatlam sifatidagi jixatlari tizimli tadqiq etilgan. N.Ismatullayev, A.Omonturdiyev, M.Mirtojiyev, H.Shamsiddinov, A.Mamatov, Z.Xolmanovalarning qimmatli izlanishlari shular jumlasidan.

O‘zbek tilshunosligida evfemizm atama sifatida 1963-64-yillarda N.Ismatullayevning “Hozirgi o‘zbek tilida evfemizmlar” nomli dissertatsiyasi orqali o‘rnashdi. Tilshunos birinchi bo‘lib, tabu va evfemizm hodisasiga doir ko‘plab ma’lumotlar jamlagan, ularni umumlashtirib, munosabatlar bildirgan, tabu va evfemizm hodisasini yoritgan, ilmiy va amaliy jihatdan asoslagan hamda muayyan xulosalarga kelgan. Ushbu tadqiqot, butun turkiy tilshunoslikda evfemizm masalasiga yangicha tus bergan tadqiqotlardandir. Olim o‘z izlanishlari davomida o‘zbek tilidagi evfemizmlarning paydo bo‘lish sabablarini, guruhlaydi (masalan, zaharli hasharotlar, yirtqich hayvonlar nomi o‘rnida qo‘llanadigan evfemizmlar, xotin-qizlar tilida ishlatiladigan evfemizmlar va sh.k.). Bundan tashqari har bir sotsial qatlam nutqida qo‘llanadigan evfemizmlarning

muomaladagi ahamiyatini, lugʻat sostavini boyitishdagi qimmatini tahlil qilib bergan. Bu tadqiqot ushbu soha masalalarini, jumladan, evfemizmni keyingi bosqichda oʻrganish uchun asos vazifasini oʻtaydi.

Tadqiqotchi A.Omonturdiyev evfemizmni “Uslubshunoslikning tadqiqot obyekti sifatida allaqachon oʻz yechimini topishi kerak boʻlgan mavzu” sifatida atroflicha tadqiq etib, oʻzbek nutqining evfemik asoslarini oʻrgandi. Olim evfemizmlarni etimologik, ijtimoiy va madaniy nuqtai nazardan tahlil qilish zarurligini taʼkidlaydi. U evfemizmlarni umumiy va maxsus nutqiy evfemizmlar guruhlarini ajratib, ularning qoʻllanilish usullarini oʻrganadi. Ushbu tasnifiy yondashuv oʻzbek tilidagi evfemik ifodalar haqida amaliy maʼlumotlarni keltiradi. Shuningdek, tilshunosning “Oʻzbek nutqining evfemik asoslari” nomli monografiyasi, shuningdek, “Bir soʻz lugʻati”, “Soʻz qoʻllash sanʼati” (hamkorlikda) va “Oʻzbek tilining qisqacha evfemik lugʻati” kabilar nashr qilingan boʻlib, ularning har birida evfemizmlarga xos turli xususiyatlar borasida qimmatli qarashlar mavjud.

Tilshunos M.Mirtojiyevning “Oʻzbek tili semasiologiyasi” monografiyasida tabu va evfemizm hodisalarining munosabati, ularning oʻrganilish tarixi masalalariga alohida eʼtibor qaratildi. Olim evfemik maʼnoning hosila maʼno ekanligi, bu hosila maʼnolar metaforik, metonimik usullarda vujudga kelishini, sinekdoxik va vazifadoshlik asosida evfemik maʼno paydo boʻlmasligini taʼkidlaydi.

Tabu va evfemizm mavzusi mavjud ishlardan foydalanib, birinchi marta 1983-yilda oliy maktab uchun tuzilgan va nashr qilingan “Oʻzbek tili stilistikasi” nomli darslikda ancha keng yoritilgan. Unda mualliflar evfemizmning nutq vositasi sifatidagi ahamiyati, hatto, kontekstual va individual evfemizmlar haqida ham toʻxtalib oʻtganlar.

Tabu va evfemizm yozma adabiyotda keyinroq, tilshunoslikda XVIII asrning boshlarida, turkologiyada esa XIX asrning oxirlarida aks eta boshlagan. Asrimizning 50-yillaridan boshlab qozoq, qirgʻiz, turkman, oʻzbek tillarida ilmiy tekshirish obyekti boʻlgan. Ushbu tildagi hodisa tadqiqida sotsiolingvistik yoʻnaltirilganlik ustuvorlik qiladi. Evfemizmni koʻp aspektli lingvistik hodisa sifatida uchta: ijtimoiy, psixik hamda lingvistik omillarning oʻzaro bogʻliqligi nuqtayi nazaridan oʻrganish lozim:

1) ijtimoiy omil (uning asosini moral etnik va diniy qadriyatlarni oʻzida mujassam qilgan ijtimoiy evfemizmlar tashkil qiladi);

2) psixik omil (uning asosini ehtiyotkor munosabatda boʻlish, yaʼni baʼzi predmet va hodisalarni toʻgʻridan toʻgʻri nomlash salbiy his-tuygʻularni, uyat, noxushlikni keltirib chiqarishi mumkin. Ularni almashtiruvchi soʻzlar esa salbiy munosabatni yumshatadi);

3) lingvistik omil (disefemistik birliklarning ko‘payishi, noxush ibora va so‘zlarni tilning stilistik potensialini kengaytiruvchi emotsional bo‘yoqdor so‘zlar, ya’ni evfemizmlar bilan almashtirish zaruratidan kelib chiqqan).

Dunyo tilshunosligida tabu va evfemizm xususida fikrlarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkun. Bular:

- 1) tabu ibtidoiy dunyoqarash ta’sirida paydo bo‘lib, jamiyatning madaniy bosqichida yo‘q bo‘lib boradi;
- 2) evfemizmlar fakti, passiv leksik qatlam sifatida mavjud;
- 3) evfemizmlar ayni zamonda, nutqiy vosita, uslub uchun ham xizmat qiladi.

Til taraqqiy etar ekan, global muammolarni hal etish uchun uslubshunoslikni notiqlik san’ati darajasiga ko‘tarish zarur. Bu esa professional nutqning barcha sohalarini, masalan, chorvador, ovchi, dehqon, yurist, jurnalist, diplomat, baxshi, shifokor, kurashchi, sovchi, to‘quvchi, tikuvchi va boshqa shu kabi mutaxassisliklardagi nutqni chuqur o‘rganishni taqozo qiladi. Bu borada A.Omonturdiyevning “Professional nutq evfemikasi” nomli doktorlik dissertatsiyasini yozib, chorvadorlar nutqidagi ularning hayoti, yashash tarzi, dunyoqarashi, urf-odatlar, an’analar, marosimlari bilan bog‘liq holda vujudga kelgan evfemizmlarni tadqiq qildi.

Evfemizmlar tadqiqida salmoqli o‘rin tutgan mulohazalar H.Shamsiddinov, A.Mamatov, Z.Xolmanovalarning izlanishlarida kuzatiladi. Xususan, H.Shamsiddinov so‘zlarning evfemik funksional-semantik sinonimlari haqida fikr-mulohazalarni bildirsa, A.Mamatov doktorlik dissertatsiyasida frazeologizmlarning evfemik va disfemik shakllanishiga doir qarashlarni keltirib o‘tadi. Shuningdek, “Boburnoma” leksikasini maxsus tadqiq qilgan Z. Xolmanova asarda qo‘llangan evfemizmlar xususida o‘z fikrlarini bayon etgan. Olima “Boburnoma” dagi evfemik ifodalar eski o‘zbek adabiy tili leksikasining semantik tarkibi, emotsional-ekspressiv xususiyatlari, muallifning lingvistik mahorati, badiiy tasvir usuli haqida asosli tasavvur berishini ta’kidlaydi. Tadqiqot ishida o‘lmoq so‘zining evfemik variantlari o‘rganilib, uning turli semantik va uslubiy maqsadlar uchun ishlatilgan shakllari tahlil qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Омонтурдиев Ж., Омонтурдиев А. Сўз қўллаш санъати. – Термиз: Жайхун, 1994. – Б. 60.
2. Пауль Г. Принципы истории языка / Пер. с нем. Под ред. А.А. Холодовича. Вст. ст. С.Д. Кацнельсона (с. 5–21). Ред-р З.Н. Петрова. – М.: Изд-во иностранной литературы, 1960. – С. 500.
3. Кацев А.М. Языковое табу и эвфемия. – Л.: ЛГПИ, 1989. – С. 15.
4. Hornby A. S. Oxford Advanced Learner’s Dictionary of... Oxford: Oxford University Press, 2000. – P. 428.

5. Вандриес Ж. Язык. – М., 1937. – С. 206.
6. Булаховский Л.А. Введение в языкознание. – М.: Букинист, 1954 – С. 174.
7. Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. – М., 1959. – С.147
8. Хожиев А. Лингвистик терминлар изохли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1974. – Б. 56.
9. Neamen J.S, Silver C. Thesaurus of euphemisms. – New York: Facts On File, 1990. – P. 373.
10. Spears A. Richard. Slang and euphemism: a dictionary of oaths, curses, insults, sexual slang, metaphor, etc. –N.Y.: New American Library, 1982. – P.11.
11. Mamitov C., Kulumbayeva Z. Turkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi. Sayı 29. Erzurum, 2006 71 Prof. Dr. Zeki Başar Özel Sayısı 5 Azırkı Kırgıztili. – F., 1971. – S. 25.
12. Holder R.W. A dictionary of euphemisms. – L.: Oxford University Press, 1995. – P. 470.
13. Kany Ch.E. American-spanish euphemisms. – Berkely, Los Angeles: University of California, 1960. – P. 249.
14. Гальперин И.Р. Проблемы лингвостилистики // Новое в лингвистике. – М., 1980. – С. 5-68.
15. Lawrens J. Ummentionables and other euphemisms. London: gentry Books, 1973. – P. 84.
16. Partridge A. Usage and Abusage. – New York, 1964. – P. 379.
16. Кацев А.М. Языковое табу и эвфемия. – Л.: ЛГПИ, 1989. – С. 79.
17. Крысин Л.П. Эвфемизмы в современной русской речи // Русский язык конца XX столетия (1985-1995). – Москва, 1996. – С. 391.